

Date: 29th December-2025

**TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ASARIDA
OBRAZLAR TAHLILI**

Nematova Sevinch Shuhrat qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Usarova Laylo

Ilmiy rahbar O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek adabiyotining yirik vakili Tog'ay Murod qalamiga mansub "Otamdan qolgan dalalar" romanining mustaqillik davri adabiyotida alohida o'rin tutgani ochib berilgan. Asarda inson va uning munosabati, mehnatsevarlik, ota merosiga sadoqat, insoniylik va halollik yoritilgan. Unda oddiy dehqon oilasining hayoti, ularning yerga, mehnatga bōlgan munosabatini yozuvchi chuqur alam- iztiroblar bilan tasvirlaydi.

Kalit so'zlar: Inson va yer, fidoyilik; haqiqat, halol mehnat, qadr-qimmat, adolatsizlik, vijdon, meros va mehnatkash dehqon.

Toğay Murod (taxallusi; asl ism - sharifi. Mengnorov Toğaymurod). Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar" asarini 1986-1991 yillar davomida yozib tugaganiga qaramasdan, 1993-yilda "Yoshlik" jurnalida qisman chop etilgan. To'liq kitob holda 1994-yil nashr etilgan. Bu asarning bosh qahramonlari bōlgan Jamoliddin ketmon, Aqrab qo'rboshi va Dehqonqul obrazlarini birlashtiradigan, umumiy tushuncha faqat uch avlod ekani emas balki ulardagi odamiylik yerni sevis va unga muhabbat tuyg'usi kōproq e'zozlanadi. Ular Alloh bergan rizqni shu zaminda deb biladi va shunga sidqi dildan mehnat qiladi.

Shakl va mazmun: Asar shakli roman shaklida. Til sodda va ravon lekin juda ta'sirli. Asarda har bir o'zbekman degan inson yetarlicha azob chekkan. Qilmagan ayblari bilan sōroq qilishgan. O'sha davrdagi zulmlar, qiynoqlar, insonlarni qadri qanchalik ekanligi va bundan tashqari paxtalar terilib ular yakka hokimliklarga bo'linib, o'rtada oddiy xalq aziyat chekishi, o'zbeklar timsolida ochib berilgan. Shulardan biri Dehqonqul misolida yoritilgan. Asar qahramoni uchun dalalari va paxtasi muhim. U bolalikdan shunga o'rgangan.

Zamon va makon: Asar 150 yildan ziyod bo'lgan voqealarni ya'ni XIX asr oxiri XX asr so'nggi choragigacha bo'lgan davrni yoritib bergan. B. Sarimsoqov: "Millat tarixini yozuvchi eng go'zal asar"-deb baholaganligi haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Makon – Surxondaryo aholisi qishloqlardan biri. Dala hayoti.

Sujet va obrazlar: Asar boshidan oxirigacha obrazlar juda ko'p qatnashgan ulardan: Jamoliddin ketmon obrazi u tug'ma mehnatkash, imonli, e'tiqodli shaxs. Uning o'ylarida shu yer chopadigan tuprog'i u uchun nondek aziz, suvdek toza deb biladi. Shu jumlar orqali ham u qanday insonligini bilsa bo'ladi.



Date: 29th December-2025

Ikkinchi obraz:Aqrab u ham otasi kabi yerni sevadigan unga muhabbati cheksiz,ammo xalqning milliy ozodlik kurashida qatnashib "bosqinchi" nomini olib shahid bo'lgan obraz.

Dehqonqul obrazi - sodda birov bilan ishi yo'q, xalq dardi hatto o'z farzandiga, oilasiga vaqt ajrata olmaydigan inson. Siyosatdan yiroq inson bo'lsa-da "Paxta ishi" bilan qamaladi. Asarda asar qahramonini onasi tomonidan koyish tasviri uchraydi. Shu koyish oqali ham yozuvchi asarning yanada yuksak cho'qqisini ochib bergan:"Onamiz ketimdan tosh otib qolardi.Ha oshingni yeyin,sen tentakni oshingni yeyin! Bu jumlar,albatta,asarni sirqirra ijodkor tomonidan yozilganligiga yana bir karra dalildir.

Ekspozitsiya:Asar kirish qismi Jamoliddin ketmon nabirasi nutqi bilan boshlanadi. Asar raisning egizak farzandlari bo'lishi ,ularning tug'ilishi kommunistik partiya safiga qabul etilgan ulug' ayyomiy kun deb qabul qilingan, hatto. Qizlari:Roza Lyuksemburg va Klara Setkin yana shu qishloqqa rais bo'lib, ularga qaysidir ma'noda azob berib ularni ko'plab qiyin ahvolga solish voqealari uchraydi. Asar ko'plab ziddiyatlarga boy shaklda olib boriladi.

Tugun:Dehqonqulning xotini o'zini-o'zi yoqib yuborishi.

Kuydi-kuydi-ayolimni tani kuydi.

Kuydi- kuydi- meni bag'rim kuydi.

Kuydi- kuydi- bolalarimning sho'ri kuydi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oxirgi 2 yilda 753 xotin-qiz o'ziga o't qo'ygani ma'lum.O'sha davrda ayollarga qanchalik qiyin bo'lganligi, ular o'zini shu kuyga solishiga sababchi bulgan narsa- muhit. Mixael Dudin degan shoir bu mavzuda g'azal ham bitganligi shu davr yanada ayanchli bulganligining isbotidir.

Kulminatsiya:Dehqonqulni qamallash jarayoni va unga berilgan azob-uqubatlari. Asar qahramonining har tomondan chorasiz qolishi. Ivan Ivanovichning raisdan tortib, poshshosigacha zindonga solganlik voqealari har bir kitobxonni yanada asarga kirishiga turtki bo'ladi.

Konflikt:"Sadest va Sokol"larning Dehqonqul bilan ziddiyatga kelishi uni qiynab ,qilmagan ayblarini bo'yniga qo'yish holatlari yaqqol kuzga tashlanadi.

Yechim:Sud jarayoni va uning natijasi bo'lmish, Jamoliddinov Dehqonqul Aqrabovich O'zbekiston Jumhuriyati jinoyat tuzugining 153-moddaga binoan... 8yil muddat bilan ozodlikdan mahrum etilish voqealarini asarga yechim deb bilsak bo'ladi.

XULOSA:Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,inson qanday bo'lishi kerak umrining eng chirkin damlarida ham nolimasa,yer uchun sodiq bo'lsa,inson qanday bo'lishi kerak zindonga kirish oldi unga so'z berilsa, g'o'zalarini ko'rib kelishiga imkon so'rasa ,zamon qandayki,insonlarni ayamasa , markazdan keladigan mehmonlarga atab bozor qilsa-yu, biroq bolalariga kelganda kambag'alligiga ko'nsa. Yozuvchining asar yakunidagi fikrlari,albatta,o'zbek xalqiga qo'ygan hay- kaldir."MEN O'ZBEK XALQIGA HAYKAL QO'YAMAN!



Date: 29th December-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Togay Murod "Otamdan qolgan dalalar". "Fan." ,Toshkent 2001yil
2. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti .Toshkent ,2005 yil
3. Pardaeva Manzura ,Til va adabiyot jurnali 2004 yil, 1-son
4. Pardaeva Zulfiya ,Til va adabiyot jurnali 2001 yil, 1-son

